



## QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida

### Raqamlar:

Qurilish ishlari  
hajmi -  
**2384,2 mlrd.so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi  
**4,5 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar  
ulushi -  
**63,8 %**

Norasmiy sektor  
ulushi -  
**31,7 %**

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Namangan viloyatida jami 2384,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,8 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 108,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,5 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,7 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,8 % yoki 1519,8 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 143,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 31,7 % yoki 756,1 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,9 % ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **108,3 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **127,7 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar

- hajmi - **1519,8 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **143,1 %**

Norasmiy sektor


- hajmi- **756,1 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **124,9 %**

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida Namangan viloyatida jami 2384,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 771,1 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Joriy yilda jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 108,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,0 mlrd.so'mga ko'paydi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 1519,8 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 564,2 mlrd.so'mga ko'paydi.

Norasmiy sektor hissasi 756,1 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 174,9 mlrd.so'mga ko'paydi.





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 1713,2 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 599,0 mlrd.so'mga ko'paygan.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 219,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6,4 mlrd.so'mga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 451,5 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 178,5 mlrd. so'mga ko'paygan.

## Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




## Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,0 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 55,0 % (7,9 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 44,4 % (8,0 % ga kamayish) ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 38,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 14,1 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 60,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 14,5 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 0,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi va 1,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,5 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga ko'paydi.



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2247,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 foizga ko'paydi.






## QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Pop tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining 43,4 % dan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.

### Tumanlar kesimida qurilish ishlari % da




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (557,0 mlrd.so'm yoki 136,1 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (249,6 mlrd.so'm yoki 133,4 %) - Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (220,1 mlrd.so'm yoki 149,7 %) - Namangan tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;






### Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar- sentyabr (mlrd,so'm)	2019 yil yanvar- sentyabr (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%)da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>1613,1</b>	<b>2384,2</b>	<b>135,8</b>	<b>100,0</b>
1	Namangan shahar	372,7	557,0	136,1	23,3
2	Mingbuloq tumani	70,6	109,8	143,9	4,6
3	Kosonsoy tumani	149,8	218,4	134,3	9,2
4	Namangan tumani	134,3	220,1	149,7	9,2
5	Norin tumani	75,8	89,0	108,7	3,7
6	Pop tumani	124,3	176,4	131,1	7,4
7	To'raqo'rg'on tumani	97,1	154,7	146,6	6,5
8	Uychi tumani	171,3	249,6	133,4	10,5
9	Uchqo'rg'on tumani	133,1	180,3	124,6	7,6
10	Chortoq tumani	106,7	151,9	132,3	6,4
11	Chust tumani	98,6	152,4	143,2	6,4
12	Yangiqo'rg'on tumani	78,8	124,6	146,8	5,2

### Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 557,0 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,1% ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 218,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan


yilning mos davriga nisbatan 34,3 % ga o'sdi, Pop tumanida 176,4 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,1 % ga o'sdi, Uychi tumanida 249,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,4 % ga o'sdi. Chust tumanida 152,4 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,2 % ga o'sdi, Chortoq tumanida 151,9 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,3 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 23,3 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 9,2 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 3,7 % ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 4,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanida 5,2 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi**  
(umumiy hajmga nisbatan %da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiya va qurilish statistikasi**  
**bo'limi**  
**Aloqa telefoni: (0371) 230-84-85**